

IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2026-yil 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 35 016 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foizga kamaygan.

2026-yil yanvar-mart oylarida 1 264 ta kichik korxon va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxon va mikrofirmalar savdo (31,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (19,9 foiz), sanoat (8,8 foiz), yashash va ovqatlanish (10,1 foiz) va qurilish (6,3 foiz) boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

2026-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda**

	yanvar-mart 2025-yil	yanvar-mart 2026-yil
Buxoro viloyati	1 172	1 264
Buxoro sh.	305	298
Kogon sh.	35	36
<i>tumanlar</i>		
Olot	51	46
Buxoro	75	120
Vobkent	54	67
G'ijduvon	100	105
Kogon	71	69
Qorako'l	80	85
Qorovulbozor	50	21
Peshku	57	61
Romitan	179	172
Jondor	59	99
Shofirkon	56	85

2026-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (298 ta), Romitan (172 ta), Buxoro (120 ta), G'ijduvon (105 ta) hamda Shofirkon (85 ta) tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (21 ta) tumanida tashkil etilgan.

2026-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida




2026-yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 23,7 foiz, Romitan tumani 13,6 foiz, Buxoro tumani 9,5 foiz, G'ijduvon tumani 8,3 foiz, Jondor tumani 7,8 foiz, Qorako'l tumani 6,7 foiz, Shofirkon tumani 6,7 foiz, Kogon tumani 5,5 foiz, eng past ko'rsatkich esa Qorovulbozor tumanida 1,7 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda


	yanvar-mart 2025-yil	yanvar- mart 2026-yil
Jami	1 172	1 264
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	296	251
Sanoat	83	111
Qurilish	59	80
Savdo	431	393
Tashish va saqlash	78	141
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	90	128
Axborot va aloqa	20	22
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21	20
Boshqa turdagi xizmatlar	94	110

**Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2026-yil 1-aprel holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 26,6 birlikda, Kogon tumanida 16,2 birlikda, Romitan tumanida 15,8 birlikda, Kogon shahrida 13,5 birlikda, Buxoro shahrida 22,9 birlikda va Buxoro tumanida 10,8 birlikda Peshku tumanida 10,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,2 – 8,3 birlik oralig'ida Jondor, Vobkent, Olot va Shofirkon tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 6,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2026-yil 1-aprel holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,2 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil yanvar-mart oylarida bu ko'rsatkich 12,2 birlikka etdi va 2025-yilning shu davriga nisbatan 1,0 birlik yuqori.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda;)



2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 560,2 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 120,6 foizni) yoki 2025-yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi 36,0 foizni tashkil qildi;

- 5 665,5 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 104,4 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,3 foizi) tashkil qildi;

- 7 691,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 57,8 foizi) o'zlashtirildi va 2025-yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 177,6 foizini tashkil qildi;

- 3 325,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 72,0 foizi) bajarildi va 2025-yil yanvar- martga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 108,2 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 71,0 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,4 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,9 foizi) tashkil qildi;

- 8 491,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 72,5 foizi) 2025-yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 119,4 foizini tashkil qildi;


- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 89,1 foizi yoki 5 949,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 116,0 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 50,5 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 50,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,7 mln.AQSH dollarga yoki 23,7 foizga ko'paydi, mos ravishda 120,6 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 42,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2025-yilning mos davriga nisbatan 3,8 mln.AQSH dollariga ko'paydi.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2025-yil	2026-yil	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	<i>birlik</i>	23 382	25 803	2 421
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	<i>birlik</i>	1 172	1 264	92
YAHM	<i>foiz</i>	66,1	65,3	-0,8
Sanoat	<i>foiz</i>	36,4	36,0	-0,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<i>foiz</i>	99,1	97,3	-1,8
Investitsiya	<i>foiz</i>	49,9	57,8	7,9
Qurilish	<i>foiz</i>	88,7	72,0	-16,7
Savdo	<i>foiz</i>	90,8	89,1	-1,7
Xizmatlar	<i>foiz</i>	69,1	72,5	3,4
Yuk tashish	<i>foiz</i>	92,9	93,7	0,8
Yuk aylanmasi	<i>foiz</i>	76,2	71,0	-5,2
Yo'lovchi tashish	<i>foiz</i>	99,7	99,7	0
Yo'lovchi aylanmasi	<i>foiz</i>	99,0	98,9	-0,1
Eksport	<i>foiz</i>	50,4	50,6	-0,2
Import	<i>foiz</i>	41,4	42,9	-1,5

**2026-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi, foizda**



**2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiyl tadbirkorlikning
(fuqarolar mulki) ulushi**


	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiyl sektor ulushi, foizda
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 665,5	100,0
Sanoat	4 560,2	120,6
Qurilish	3 325,4	49,2
Chakana savdo	5 949,9	62,1

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (562,3 mlrd.so'm), Kogon tumani (438,2 mlrd.so'm), G'ijduvon tumani (392,4 mlrd.so'm) va Jondor tumani (292,8 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanlarida (151,2 mlrd.so'm) va Buxoro (157,6 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2026-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Shofirkon (91,0 foiz), Jondor (85,5 foiz), Vobkent (71,6 foiz), Kogon shahri (64,2 foiz), Kogon (70,6 foiz) va Buxoro (52,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga G'ijduvon (34,8 foiz) va Qorovulbozor (3,0 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

2026-yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foizda




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (748,0 mlrd.so'm), Buxoro (670,2 mlrd.so'm), Romitan (571,6 mlrd.so'm), Shofirkon (569,4 mlrd.so'm) va G'ijduvon (527,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (56,5 mlrd.so'm) va Buxoro (111,4 mlrd.so'm) shaharlari, Qorovulbozor tumani (167,6 mlrd.so'm) da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2026-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1 348,4 mlrd.so'm), G'ijduvon (1 132,7 mlrd.so'm), Qorako'l (513,6 mlrd.so'm) va Buxoro (425,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor (154,9 mlrd.so'm), Olot (155,6 mlrd.so'm), Peshku (162,6 mlrd.so'm) tumanlari va Kogon (184,0 mlrd.so'm) shahrida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2026-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar tahlil qilinganda xizmatlarning eng yuqori ulushi Buxoro shahriga (1 610,5 mlrd.so‘m), undan keyin G‘ijduvon (698,2 mlrd.so‘m), Vobkent (645,9 mlrd.so‘m) va Jondor (315,7 mlrd.so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Kogon tumani (222,5 mlrd.so‘m), Olot (203,1 mlrd.so‘m), Kogon shahri (202,2 mlrd.so‘m) va Qorovulbozor (93,5 mlrd.so‘m) tumanlarida xizmatlarning ulushi nisbatan past bo‘lib qolmoqda.

2026-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o‘shish sur‘ati




**2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi
hududlar bo'yicha ulushi, foizda**

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
Buxoro viloyati	36,0	97,3	57,8	72,0	89,1	72,5
Buxoro sh.	41,4	97,0	73,4	85,4	76,1	49,0
Kogon sh.	64,2	98,3	88,9	95,9	95,6	77,2
<i>tumanlar</i>						
Olot	52,4	98,4	75,1	22,4	98,6	83,7
Buxoro	52,9	98,4	76,5	95,0	99,6	80,3
Vobkent	71,6	98,3	93,9	94,2	93,5	88,2
G'ijduvon	34,8	98,4	89,5	92,4	91,4	84,4
Kogon	70,6	94,4	91,9	96,6	92,8	87,8
Qorako'l	49,1	98,1	42,6	29,3	99,4	78,0
Qorovulbozor	3,0	82,2	8,0	7,5	99,9	50,8
Peshku	46,2	98,5	6,9	98,3	74,0	69,5
Romitan	35,4	98,4	76,7	88,6	99,7	75,4
Jondor	85,5	98,0	95,8	97,6	96,7	78,5
Shofirkon	91,0	98,1	92,3	89,8	99,5	79,7

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Jondor (95,8 foiz), Vobkent (93,9 foiz), Shofirkon (92,3 foiz), Kogon (91,9 foiz) va G'ijduvon (89,5 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Peshku (98,3 foiz), Jondor (97,6 foiz), Kogon (96,6 foiz) tumanlari, Kogon shahri 95,9 foiz), Buxoro (95,0 foiz) va Vobkent (94,2 foiz) tumanlari tashkil etadi.

2026-yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2026-yil I-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1 012 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, xizmatlar sohasida respondentlarning 19,0 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 77,3 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda 17,9 foiz va 73,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 15,8 foiz va 82,0 foiz, savdo sohasida 15,3 foiz va 82,1 foiz, sanoatda 14,4 foiz va 79,1 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 6,5 foiz, qurilishda 8,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,2 foiz, xizmatlarda 3,7 foiz va savdoda 2,6 foizni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash
2026-yil I -chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yaxshilanish 48,7 foiz, o‘zgarishsiz 50,9 foiz, yomonlashish 0,4 foiz, sanoat korxonalarida yaxshilanishi 60,1 foiz, o‘zgarishsiz 37,9 foizi, yomonlashish 2,0 foiz, savdo yaxshilanish 49,5 foiz, o‘zgarishsiz 50,0 foiz, yomonlashish 0,5 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 56,2 foiz, o‘zgarishsiz 42,6 foiz, yomonlashish 1,2 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 54,3 foiz o‘zgarishsiz 43,5 foizi kuzatildi, yomonlashish 2,2 foizga teng bo‘ldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari (tadbirkorlik sub`ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub`ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonaning faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

Chakana savdo – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Tovarlarni realizatsiya qilish – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Reklama – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

Tavakkalchilik – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

Bozor – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.